



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO‘JALIGI VAZIRLIGI HAY’ATI YIG‘ILISHI BAYONI

26«noyabr»2025 yil.

16-son

Raislik qiluvchi: **Sh.Xidoyatov** – Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vaziri

Markaziy studiyada: Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining Hay’ati a’zolari, vazir o‘rinbosarlari, vazir maslahatchisi, Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining mas’ul hodimi, Apparat rahbari, markaziy apparat tarkibiy bo‘linmalari boshliqlari, hududiy bosh boshqarma rahbarlari, uning o‘rinbosarlari va bosh boshqarmaning tegishli bo‘lim boshliqlari hamda tizim tashkilot rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

Hududiy studiyalarda: Hududiy bosh boshqarmalar tarkibiy bo‘linmalari boshliqlari, tuman (shahar) bo‘limlar boshliqlari va hududiy tizim tashkilotlari rahbarlari (*ro‘yxat bo‘yicha*)

KUN TARTIBI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining 2025-yil 10-noyabrdagi “Aniqlangan qonunbuzilishlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida”gi taqdimnomasi (T-02-12-87-son) muhokamasi.

2. Vazirlik faoliyatiga oid boshqa masalalar.

(Xidoyatov, Saidov, Adilov, Alimatov, Jurayeva, Imomov, ... Xidoyatov)

Kun tartibidagi asosiy masala, ya’ni Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha vakil devonining (keyingi o‘rinlarda – Vakil devoni) 2025-yil 10-noyabrdagi “Aniqlangan qonunbuzilishlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to‘g‘risida” taqdimnomasi (T-02-12-87-son) muhokamasini o‘tkazish uchun Vakil devonining mutasaddi vakili Sh.Saidov **so‘zga chiqib, taqdimnomani o‘qib eshittirdi.**

Xususan, Vakil devoni tomonidan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik), uning tizimidagi tashkilotlar hamda Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududiy bo‘linmalari tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi

bo'yicha o'rganish o'tkazilganligini, o'rganishda bir qator qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yib kelinayotganligi aniqlanganligini ta'kidlab o'tdi.

Shuningdek, qonunbuzilish holatlarining kelib chiqish sabablari va bunga imkoniyat yaratib berayotgan shart-sharoitlarni bartaraf etish yuzasidan tashkiliy, **amaliy chora-tadbirlar belgilash lozimligi haqida to'xtalib o'tdi.**

Shundan so'ng, Vakil devoni tomonidan o'tkazilgan o'rganishda qator **qonunbuzilish holatlariga yo'l qo'yib kelinayotganligi aniqlanganligini tanqidiy tarzda muhokama qilindi.**

Mazkur yo'nalishlarga mas'ul bo'lgan xodimlarga nisbatan intizomiy javobgarlik masalasini ko'rib chiqish bo'yicha vazirlik mutasaddilariga vazifalar belgilab, shu bilan bir qatorda ularning ishlarini muvofiqlashtirib boruvchi rahbarlarga ham **ogohlantirish va qat'iy ko'rsatmalar berib o'tildi.**

Shu bilan birga, taqdimnomada ko'rsatib o'tilgan kamchiliklar va ularni bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilishi zarur bo'lgan ishlar yuzasidan yig'ilish qatnashchilariga **topshiriq va tushuntirishlar berildi.**

Kun tartibidagi masalalarni atroflicha muhokama qilib, shuningdek, mavjud kamchilik va muammolarni bartaraf etish, Vakil devoni taqdimnomasida qayd etilgan qonunbuzilish holatlari va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda mutasaddi rahbar va mas'ul xodimlar mas'uliyatini yanada oshirish maqsadida, yig'ilish

QAROR QILADI:

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining 2025-yil 10-noyabrdagi "Aniqlangan qonunbuzilishlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida"gi taqdimnomasi (T-02-12-87-son) muhokamasi bo'yicha:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni tomonidan Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi (keyingi o'rinlarda – Vazirlik), uning tizimidagi tashkilotlar hamda Samarqand, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari hududiy bo'linmalari tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya etilishi yuzasidan o'tkazilgan o'rganish yakunlari bo'yicha taqdimnoma ijro uchun qabul qilinsin. (o'rganish natijalari bo'yicha taqdimnoma 1-ilovada keltirilgan)

Mazkur o'rganishda quyidagi **xato va kamchiliklar aniqlanganligiga alohida e'tibor qaratilsin:**

a) tadbirkorlik subyektlarining murojaatlarini ko'rib chiqish sohasida Vazirlik markaziy apparati va tizim tashkilotlarida 22 ta, Surxondaryoda 9 ta, Qashqadaryo va Samarqandda 3 tadan jami 37 ta holatda tadbirkorlik subyektlari murojaatlarini ko'rib chiqishda muddat buzilgan;

b) tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar yuzasidan Markaziy apparatda **2 ta**, Qashqadaryoda **6 ta**, Surxondaryoda **1 ta jami 9 ta** holatda tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlar "Tekshiruvlarni elektron ro'yxatga olish yagona tizimi"da ro'yxatga olinmagan;

d) xizmat ko'rsatish sohasida:

- ko'p kvartirali uyni boshqarish organini elektron reestrda ro'yxatdan o'tkazish va ko'p kvartirali uyni boshqarish organiga biriktirish yo'nalishida vazirlik hududiy boshqarmalari tomonidan **jami 478 ta** holatda (shundan uy biriktirish bo'yicha 372 ta, boshqaruv organlari reestrda kiritish bo'yicha 106 ta) so'rovnomalarni ko'rib chiqishda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- vazirlik markaziy apparati tomonidan jami 214 ta holatda (uy biriktirish bo'yicha **190 ta**, boshqaruv organlari reestrda kiritish bo'yicha **24 ta**) so'rovnomalarni ko'rib chiqishda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish sohasida ixtiyoriy tanlangan **800 ga** yaqin arizalar asosida o'rganilganda **132 ta** holatda shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o'tkazish tartibiga rioya etilmaganligi aniqlangan;

- bino va inshootlarning ixtisoslashishini o'zgartirish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurishni loyihalashtirishga ruxsatnoma berish bo'yicha Qashqadaryoda 426 ta, Samarqandda 126 ta, Surxondaryoda 63 ta **jami 615 ta** holatda bino va inshootlarning ixtisoslashishini o'zgartirish, qayta qurish, rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurishni loyihalashtirishga ruxsatnoma berish asossiz rad etilgan hamda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- loyiha-smeta hujjatlarini kelishish bo'yicha Qashqadaryoda 403 ta, Surxondaryoda 24 ta, Samarqandda 16 ta **jami 443 ta** holatda loyiha-smeta hujjatlarini kelishish asossiz rad etilgan hamda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish bo'yicha Qashqadaryoda 170 ta, Surxondaryoda 32 ta, Samarqandda 5 ta **jami 207 ta** holatda arxitektura-rejalashtirish topshirig'ini ishlab chiqish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatish asossiz rad etilgan va muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma berish bo'yicha Samarqandda 17 ta, Surxondaryoda 16 ta **jami 33 ta** holatda tuman (shahar) qurilish bo'limlari tomonidan qurilish-montaj ishlari tugallangan obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma berish asossiz rad etilgan hamda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirishni kelishish bo'yicha Samarqandda 5 ta, Surxondaryoda 2 ta holatda bino va inshootlarning tashqi ko'rinishini o'zgartirishni kelishish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatish tartibi buzilgan;

- ko'chmas mulk buzilishiga tushganligi yoki tushmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma berish bo'yicha Qashqadaryoda 66 ta, Samarqandda 3 ta **jami 69 ta**

holatda ko'chmas mulk buzilishga tushganligi yoki tushmaganligi to'g'risida ma'lumotnoma berish bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishda muddat buzilishiga yo'l qo'yilgan;

- tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish sohasida Samarqandda 26 ta holatda tuman (shahar) qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limlari tomonidan tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish tartibi buzilgan;

E) "Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeks va "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi Qonun talablariga rioya qilinishi bo'yicha 5 ta holatda tadbirkorlik subyektlari huquqbuzarlik faktini inkor etgan bo'lsa-da, ma'muriy ish Vazirlik tomonidan jinoyat ishlari bo'yicha sudga yuborilmagan.

2. Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (R.Rasulov):

Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonining 2025-yil 10-noyabrdagi "Aniqlangan qonunbuzilishlarga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida" taqdimnomasi (T-02-12-87-son) **muhokamasida ishtirok etmaganligi uchun** quyidagi mutasaddi rahbarbarlarlardan tushuntirish xatlari olinib, uzrsiz ushbu yig'ilishda qatnashmaganligi sababli ularga nisbatan **intizomiy chora ko'rish bo'yicha Vazirga taklif kiritsin:**

"Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish" Respublika markazi direktori **(M.Inoyatov);**

"Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi" direktori **(M.Zagrutdinov);**

"Ko'p xonadonli uylarni kapital va joriy ta'mirlash, issiqlik ta'minoti obyektlari qurilishi bo'yicha injiniring kompaniyasi" davlat unitar korxonasi direktori **(T.Ochilov);**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vaziri **(Q.Aytbayev);**

Buxoro viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i **(S.Djumayev);**

Navoiy viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i **(A.Niyofov);**

Toshkent viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i v.v.b **(J.Anvarov);**

Farg'ona viloyati Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i **(B.Raximov).**

Kelgusida ushbu holat takrorlangan taqdirda mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasi qo'llanishi belgilab qo'yilsin.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal ho‘jaligi vaziri, viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi, Toshkent shahar Qurilish bosh boshqarmasi, Toshkent shahar Uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi rahbarlariga:

o‘rganish yakunlari bo‘yicha aniqlangan muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari kengaytirilgan tarzda muhokama qilsin;

bir kun muddatda o‘tkazilgan muhokama va uning natijasi bo‘yicha qabul qilingan qarorlar to‘g‘risida vazirlikka axborot kiritsin;

kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas‘ul xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo‘llasin;

intizomiy jazo chorasini qo‘llanilganligi to‘g‘risidagi buyruq nusxasini ma‘lumot tariqasida vazirlik Rahbariyatiga taqdim qilsin;

yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida ushbu holatlar takrorlanmasligi, bu borada xodimlar mas‘uliyatini kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha keskin va ta’sirchan choralar ko‘rsin;

murojaatlar bilan ishlash faoliyati yuzasidan o‘zlariga yuklangan vazifa va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, nazoratdagi hujjatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, murojaatlarda ko‘tarilgan masalalarni chuqur o‘rgangan holda, yechimi yuzasidan murojaat egasiga aniq va to‘liq javob berilishini ta‘minlasin. Bunda, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” Qonun talablariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlasin;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatida o‘tkaziladigan tekshiruvlarda “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun talablariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlasin;

ko‘p kvartirali uyni boshqarish organini elektron reestrda ro‘yxatdan o‘tkazish va ko‘p kvartirali uyni boshqarish organiga biriktirishda Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrda 853-son qarori bilan tasdiqlangan “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlarining elektron reestrini yuritish bo‘yicha” ma‘muriy reglamentning 16 va 17-bandlari talablariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlasin;

hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashi faoliyatini tashkil etish, arizalarni (loyihalarni) ko‘rib chiqish va hujjatlarni rasmiylashtirishni Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 17-aprelda 214-son qarori bilan tasdiqlangan nizom talablari asosida amalga oshirsin;

qurilish sohasiga oid davlat xizmatlari ko‘rsatish jarayonlarida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-aprelda 200-son qarori talablariga qat’iy rioya etilishini ta‘minlasin;

ko‘chmas mulk buzilishga tushganligi yoki tushmaganligi to‘g‘risida ma‘lumotnoma berishda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-noyabrda 612-son qarori bilan tasdiqlangan “Jismoniy va yuridik shaxslarga ma‘lumotnomalar berish

bo'yicha davlat xizmatlarini ko'rsatishning yagona" **reglamenti talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin;**

xizmat tekshiruvlarini qayd qilish kitobi va reestri doimiy yuritib borilishi **ta'minlansin.**

4. Arxitektura va shaharsozlikni rivojlantirish boshqarmasi (A.Usmonov) hududiy bosh boshqarmalar bilan birgalikda:

hududiy bosh boshqarmalar tomonidan Shaharsozlik kodeksi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (PF-5392, PF-151, PQ-3646) va Vazirlar Mahkamasining (VMQ-214) tegishli Farmon va qarorlariga muvofiq ish yuritilishini;

qurilish sohasiga oid davlat xizmatlari ko'rsatish jarayonlarida Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi 200-son qarori talablariga qat'iy rioya etilishini;

hududiy arxitektura-shaharsozlik kengashlari (keyingi o'rinlarda – Kengash) tomonidan aholi punktlarini rekonstruksiya qilish va obodonlashtirishda, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini joylashtirishda shaharsozlik to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga qat'iy rioya etilishini ta'minlasin.

5. Arxitektura nazorati departamenti (N.Rejaboyev):

a) Davlat arxitektura nazorati departamenti xodimlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi, viloyat bosh boshqarmalari va Toshkent shahar bosh boshqarmalari bilan birgalikda xo'jalik subyektlarini tekshirish yuzasidan tegishli tartibda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devonini xabardor qilish tartiblariga hamda tegishli normativ huquqiy xujjatlarga qat'iy rioya qilgan holda o'tkazilishini ta'minlasin;

b) tasdiqlangan bosh rejalar asosida shaharsozlik hujjatlariga rioya etilishi yuzasidan **doimiy monitoring** o'rnatish.

6. Arxitektura nazorati departamenti (N.Rejaboyev), Yuridik ta'minlash bo'limi (F.Esanbayev), Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (**J.Fayziyev**) va Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi (**R.Rasulov**) bilan birgalikda **uch kun muddatda** markaziy apparat va hududiy bosh boshqarmalarning tegishli mas'ul hodimlari ishtirokida tadbirkorlik subyektlarini tekshirish va aniqlangan huquqbuzarliklarni O'zbekiston Respublikasi MJtK va boshqa normativ-huquqiy xujjatlarga muvofiq to'g'ri rasmiylashtirish yuzasidan targ'ibot-seminar tashkil etsin;

Monitoring natijalari yuzasidan Rahbariyatga doimiy ravishda axborot kiritib borsin.

7. Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish respublika markazi (M.Inoyatov):

o'rganish yakunlari bo'yicha **aniqlangan muammo va kamchiliklar, ularni bartaraf etish choralari kengaytirilgan tarzda muhokama qilsin;**

bir kun muddatda o'tkazilgan muhokama va uning natijasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar to'g'risida vazirlikka axborot kiritsin;

kamchiliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarga nisbatan mehnat qonunchiligida belgilangan tartibda intizomiy jazo chorasini qo‘llasin;

intizomiy jazo chorasi qo‘llanilganligi to‘g‘risidagi buyruq nusxasini ma’lumot tariqasida vazirlik Rahbariyatiga **taqdim qilsin;**

yuqorida qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish, kelgusida ushbu holatlar takrorlanmasligi, bu borada xodimlar mas’uliyatini kuchaytirish va faoliyat samaradorligini oshirish bo‘yicha **keskin va ta’sirchan choralar ko‘rsin;**

murojaatlar bilan ishlash faoliyati yuzasidan o‘zlariga yuklangan vazifa va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etish, nazoratdagi hujjatlarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish, murojaatlarda ko‘tarilgan masalalarni chuqur o‘rgangan holda, yechimi yuzasidan murojaat egasiga **aniq va to‘liq javob berilishini ta’minlasin.** Bunda, “Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to‘g‘risida” qonun talablariga qat’iy rioya etilishini **ta’minlasin;**

shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazishda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **579-son qarori talablariga qat’iy rioya etilishi ta’minlansin.**

8. Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti (**O.Muminov**):

a) Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 18-dekabrdagi 853-son qarori bilan tasdiqlangan reglamentga muvofiq, kelib tushayotgan so‘rovnomalarni belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqilishini ta’minlasin;

b) ko‘p kvartirali uylarni saqlash, ulardan foydalanish talablariga va foydalanish xarajatlarini aniqlash talablariga, ko‘p kvartirali uylardan texnik jihatdan foydalanish qoidolari va normalariga, ko‘p kvartirali uylarga tutash yer uchastkalarini sanitariya normalariga, qoidalariga hamda gigiyena normativlariga muvofiq saqlash talablariga rioya etilishi ustidan hamda lift uskunalaridan foydalanish qoidalarini nazorat qilish funksiyalarini qo‘shish;

- “Xavfni tahlil etish” tizimi orqali xabardor qilish bo‘yicha Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti xodimlariga maxsus guvohnoma olinishi inobatga olinsin.

9. Ko‘p xonadonli uy-joy fondini boshqarish va ekspluatatsiya qilish tizimini muvofiqlashtirish hamda renovatsiya loyihalarini umumlashtirish departamenti (**O.Muminov**), Arxitektura nazorati departamenti (**N.Rejaboyev**), Yuridik ta’minlash bo‘limi (**F.Esanboyev**) bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-noyabrdagi **PF-184-sonli** Farmoni va boshqa normativ-xuquqiy xujjatlarga tegishli qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish haqida Rahbariyatga taklif kiritilsin.

10. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish Respublika markazi (**Zagrutdinov**) ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlarini birlashtirish

hamda ularni ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari amalga oshiriladigan axborot tizimida yuzaga kelayotgan kamchilik va nosozliklarni o'z vaqtida bartaraf etsin.

Shuningdek, mazkur tizim faoliyatida uzilishlar yuzaga kelgan hollarda, tizimning ishlamay qolganligi haqidagi ma'lumotlarni belgilangan tartibda va o'z vaqtida Rahbariyatga axborot kiritib borsin.

II. Vazirlik faoliyatiga oid boshqa masalalar bo'yicha:

11. Vazirlikning Xalqaro hamkorlik va Jahon savdo tashkiloti bilan ishlash hamda DXSH va investisiya loyihalarini shakllantirish boshqarmasi (**R.Xabibullayev**) hamda Xo'jalik ishlari bo'limi (**M.Mirzakarimov**) bilan birgalikda, "Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi xodimi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risida"gi nizom talablariga muvofiq, 2025-yil davomida xalqaro uchrashuvlardan olingan sovg'alar reestrini hamda olingan sovg'alar yuzasidan ma'lumotlarni shakllantirib, ular bilan bog'liq masalalarni nazorat qilish va muvofiqlashtirish uchun **bir hafta muddatda** Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limiga taqdim etsin.

12. Ijro nazorati bo'limi (**V.Mamedov**) mazkur yig'ilish bayoni ijrosi **nazoratini olib borgan holda** natijasi bo'yicha Rahbariyatga axborot kiritib borsin.

13. Mazkur yig'ilish bayoni ijrosini nazorat qilishni o'z zimmasida qoldiraman.

Vazir



Sh.Xidoyatov